O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2024 - yil 6 - fevral 62-2-0-Q/24 Buxoro viloyati hokimligi

Viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son qarori muvofiq, xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2023-yil 14-dekabrdagi VI-88-95-2-0-K/23-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim vazirligining 2023-yil 21-dekabrdagi VX33386631-01/22-550-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN

1. Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2023-yil 14-dekabrdagi VI-88-95-2-0-K/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining mazkur qarori bilan:

viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari yuzasidan xulosasi inobatga olinganligi;

Buxoro viloyati hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buxoro viloyati hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (S.Usmonov)ga:

viloyat sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (A.To‘xtayev) shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish choralarini ko‘rib borish;

“Aholitrans” MCHJ (F.Rashidov), “Maxsusavtoxo‘jalik” MCHJ (A.Nazarov), “Toza hudud” DUK (A.Asatov) bilan birgalikda hududlardagi qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat sifatini yaxshilash hamda yig‘ilgan chiqindilarni ekologiyaga ta’sir ko‘rsatmasdan ishlab chiqarish sohasini joriy etish topshirilsin.

5. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Arashov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 6-fevraldagi
62-2-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori

so‘mda

Iste’molchilar	**Hudud**	**Yangi tarifga taklif**
Aholi uchun (1 kishiga 1 oyda) *(QQSsiz)*	Shaharlar	5 000,0
	Tumanlar	4000,0
Yuridik korxonalar uchun (1 tonna) *(QQSsiz)*	Shaharlar	186 000,0
	Tumanlar	160 000,0
Yuridik korxonalar uchun (1 m3) *(QQSsiz)*	Shaharlar	83 000,0
	Tumanlar	71 000,0